

XALQ MAQOLLARINING E‘TIDODIY ASOSLARI

Rahmatov Yo‘ldosh G‘aybullayevich

filologiya fanlari doktori

O‘z RFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti

***Annotatsiya:** Maqollarning paydo bo‘lishi bir necha omillarga bog‘liq. Shulardan biri maqollarning ilohiy manbalar va hadislar asosida boyishidir. Mazkur maqolada hadislar, maqollar va Alisher Navoiy hikmatli so‘zlarining o‘zaro munosabati xususida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** maqol, hikmatli so‘z, hukm, hadis, o‘git, oyat, tanbeh, «Mahbub ul-qulub».*

Arabcha maqol so‘zi adabiyotlarda hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora, gap[6.456]; qisqa, chuqur ma‘noli, nutqda ko‘p qo‘llanuvchi, barqaror shaklga ega folklor janrlaridan biri [9.239], – sifatida izohlanadi. Ko‘p asrlik hayotiy kuzatishlar mahsuli sanalgan bu hikmatlar yana «otalar so‘zi», «el so‘zi»[4.69], «qanotli so‘zlar» tarzida ham qo‘llangan. Shulardan kelib chiqib, maqolni otalardan kelgan so‘z tarzida tushunish mumkin. Bu esa bizga, tabiiy ravishda, maqolning kelib chiqish davri juda olisga, insoniyat tarixining ilk davrlariga borib taqaladi, degan fikrni aytish imkonini beradi. Zero, bashar tarixi Odam safiyullohdan boshlanar ekan, barcha axborotlar qolganlarga o‘git, nasihat, da‘vat, qaytariq shaklida kelgani inkor etilmas haqiqatdir. Folklorshunos Sh.Turdimov adabiyotda inson ma‘naviyati, tafakkuri, uning erki va o‘zida o‘zligini topish yo‘lidagi iztirobi va izlanishlarini badiiy ifoda qilgan ma‘nolar qatlamining mavjudligini uning ULKAN SO‘Zga daxldor ekanligi bilan izohlaydi.[3.12] Shunga ko‘ra, butun insoniyatda o‘zidan keyingilarni hayotga tayyorlash, to‘g‘ri va noto‘g‘rini farqlash, baland va pastni bilish, turmush sinovlariga hozirlash mas‘ulligi shakllangan. Bu ayniqsa, adabiyot – so‘z san‘ati vositasida yanada kengaygan. Insoniyatning yerda Alloh ko‘rsatmalari, hukmlariga asosan o‘z hayotini boshlashi, keyinchalik yashash jarayonidagi xulosalari bilan aralashib o‘ziga xos «yashash qonunlari» (Fitrat) yuzaga keldiki, ular og‘izdan-og‘izga o‘tish natijasida ko‘payib, yangilanib zamonga, nutqqa moslashib boravergan va shu tarzda nozik iboralar, maqollar yuzaga kelgan. Abdurauf Fitrat yozma adabiyotga qarshi o‘zining samimiyligi, soddaligi bilan o‘z borlig‘ini saqlab kelgan bu kabi el adabiyoti namunalarining ayirmasini faqat yozma bo‘lmasligi, yo egasining ma‘lum emasligi bilan belgilamay, balki asosiy farq bu asarlarning ruhida ekanligini ta‘kidlaydi. Zeroki, folklor asarlari ilk tarix, real hayot tarziga eng yaqin «hech bir jihati bilan reallikdan, moddiy dunyodan chiqmaydigan»[1.125] asarlar sanaladi.

Demak, har qanday badiiy so‘zning asl man‘shai ilohiy kitoblar bo‘lib, qolgan barcha ijod namunalari undagi g‘oya, mazmun va tasvir zamiridan o‘sib chiqqanligi haqidagi qarashlarga tayanib, maqol oldingilar so‘zini sintezlash va ularni yashab

turgan muayyan zamonga moslab olib kirishdan paydo bo‘lgan, deyish mumkin. Bunday xulosaga kelishga esa quyidagilar asos bo‘la oladi:

- a) barcha xalqlar adabiyotida maqolning mavjudligi;
- b) aynan bir maqolning shakl va mazmun o‘zgarishsiz (faqat til jihatdan farqlanadi) barcha xalqlarda uchrashi;
- s) ilohiy kitoblarning bayon uslubiga rioya etilib yaxshilik va yomonlik haqida parallel so‘z yuritish;
- d) ezgulikka da‘vat, yomonlikdan qaytarish;
- ye) ixcham shaklda keng ma‘no ifodalash;
- i) fikrning ohangdosh so‘zlar bilan ifodalanishi;
- k) pand, nasihat, o‘git, mav‘izadan iboratligi.

Maqollarning paydo bo‘lishiga, albatta, yozma manbalar – adabiy asarlarning ham ta’siri bo‘lgan. Fikrimiz dalili sifatida Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asariga murojaat qilsak. Asar buyuk shoirning hayot deb atalmish uzun yo‘lning xotimasida yo‘lni o‘tagan yo‘lboshchisi sifatida kelajak yo‘lovchilarga o‘git, nasihatlaridir. Buni shoirning o‘zi asar debochasida shunday ta’kidlaydi: «Bu muqaddimotdin maqsad bukim, har ko‘y va ko‘chada yugurubmen va olam ahlidin har nav’ elga o‘zumni yetkurubmen va yaxshi-yomonning af‘olin bilibmen va yamonu yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va sharrdin no‘sh va nish ko‘ksunga yetibdur va laim va karim zaxm va marhamini ko‘nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin bayozi ashob va davron xaylidin ba’zi ahbobki, bu hollardin xabarsiz va ko‘ngullari bu xayr va sharrdin asarsizdur... bu nav’ ashob va ahbobg‘a intiboh qilmoq va alarni bu nav’ holatdin og‘oh qilmoq vojib ko‘rundi... »[2.10] O‘quvchini “munosib el xizmatiga shitob», «nomunosib el xizmatidin ijtinob» qilishga chorlovchi mazkur asar ulug‘ mutafakkirning shariat ahkamlari, tariqat asoslari va badiiy so‘z latofatini birbutun jamuljam etganini tasdiqlaydi. Asardagi har bir tanbih bevosita mutaffakkir shoirning hayotiy kuzatuvlari hosilasidan yuzaga kelgan hikmatlar sanaladi. Shoir ularni ilohiy va hayotiy asos negizida quradi, ya’ni o‘z qarashlarini dalillash maqsadida tanbehga Qur’oni karim oyatlari, hadislar, buyuk shaxslarning fikri va xalq maqollarini singdirib yuboradi. Bu bilan shoir bir tomondan tanbehlar mazmuni va badiiyatini boyitsa, ikkinchi tomondan hikmatlarini inkor etilmas dalillar bilan quvvatlantiradi. Qolaversa, ulug‘ shoir asarda qur’oniy uslub – sajdan foydalanib, turkiy ijodga xos ohang va xalqona ifoda yo‘sini – shaklan siqqlik, mazmunan chuqurlikka qat’iy intilgan.

«Mahbub ul-qulub»ning «Mutafariqa favoid va amsol suvrati» deb nomlangan uchinchi qismi da‘vat, o‘git, pand bilan boshlanadi. Alisher Navoiy insonni o‘z holiga nazar solishga undab, amal, davlatga mag‘rurlikning iloji Tangri taoloning mulkini mulohaza qilish, kibrga mubtalolikka esa Uning ulug‘ligi va

azamati haqida fikr yuritish chora bo‘ladi, - deydi. Bu bilan shoir Ollah osmonlar, yer va ularning orasidagi barcha narsalarning egasi ekani, Uning qudrati oldida maxluqotning ojizligi hamda barcha doimo Unga muhtojligini urg‘ulaydi. Shu mazmundan kelib chiqib 1- tanbehni keltiradi: «Andinki nafs komidur va nafsoniyat maqomidur. Hech kim o‘z ko‘ngliga g‘am tilamas va o‘z nafsig‘a alam istamas. Ammo o‘zganing sharif zotig‘a behad mazallat ko‘rsa, oncha tafovut qilmaski, o‘ziga juz‘iy shiddat va yana bir aziz nafsig‘a beaded mehnat anglasa, oncha mutaasir bo‘lmaski, o‘ziga oz kulfat. Va barchaga o‘zgin o‘zi azizroq va o‘zgalar so‘zidin o‘z so‘zi lazizroq. Olam yaxshiligini kishi o‘zidin darig‘ tutmas, ammo o‘zga kishiga yovutmas»[2.72]. Bu tanbehda inson o‘z nafsig‘a qul bo‘lmasligi, o‘ziga tilagan yaxshiligini o‘zgaga ham ravo ko‘rishi lozimligi ta‘kidlangan. Ma‘lumki, imonning birinchi belgilaridan biri saxiylik va mehribonlik. O‘z nafsini yengmagan inson ham mo‘min emas. Nafs ketiga tushgan odamning manzilgohi nafsoniyat. Mabodo ana shu nafsidan kechib o‘zgalarga saxovat qilibdimi, u chin mo‘min bo‘ladi. Muammad (s.a.v)ning hadislarida «O‘zingizga ravo ko‘rgan narsani birodaringizga ham ravo ko‘ring»,– tarzida da‘vat etiladi. Imom Al Buxoriyning «Al jome al sahih» kitobida shunday keltiriladi: Anas ibn Molik raziyallohi anhu rivoyat qiladilar: «Payg‘ambar alayhissalom aytadilar: O‘zingiz yaxshi ko‘rgan narsani birodaringizga ravo ko‘rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo‘min bo‘la almaysiz»[8.472]. Ko‘rinadiki, inson eng avvalo, o‘ziga doimiy ezgu tilaklarni ravo ko‘radi, biror inson yo‘qki, o‘ziga yomonlikni istasin, shunday ekan o‘ziga istaganini jumla olam ahliga istasa, bundan uning ko‘ngli ravshan tortadi va jamiyat sog‘lom bo‘lasa, el obod bo‘ladi. Imom Nabaviy bu hadis haqida alohida to‘xtalib shunday deydi: «Yaxshilik odoblarining hammasini o‘zida jamlagan to‘rtta hadis bor. Ana shu hadislardan bittasi Anas ibn Molik tomonidan aytilgan mazkur hadisdir»[10]. Bundan shuni anglash mumkinki, mo‘min bo‘lishning asosiy omili saxiylikdir, insonni yo‘ldan uradigan hodisa esa kibr va xasislikdir.

Alisher Navoiy ham chin insoniylikning birinchi belgisi – o‘zgalarga yaxshilik qilmoqlik, deydi va tanbehlarining birinchisini shu mavzuga bag‘ishlaydi. Xalq orasida mazkur hadis ko‘p takrorlanaverganidan, uni o‘z maqoliga aylantirib yuborgan. Natijada xalq og‘zaki ijodi Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning ayni shu mazmundagi hadislarini asosida «O‘zingga ravo ko‘rmaganni, o‘zgaga ham ravo ko‘rma» [7.2.131] maqoli bilan bittaga boyigan.

Uchinchi tanbeh o‘ziga bino qo‘ygan takabbur kishilarga bag‘ishlanadi va bu holat qattiq qoralanadi. «Xudparast – noxiradmand. Xudoro – shohidi ra‘no. Mustag‘niy –mag‘bun, mutakabbir – mal‘un. Shahvatparast – nafsg‘a zardast. Xudparast – butparast. Bu balolardin nafsi fano qutqarur va bu mahlaklardin najot

sari boshqarur» [2.73]. Qur’oni karimda odamzod yaratilganda birinchi sodir bo‘lgan gunoh kibrdir. «Baqara» surasining 34-oyatida bu haqda shunday deyilgan: «Eslang, (ey, Muhammad!) Biz farishtalarga: «Odamga sajda qilingiz!» deb buyurishimiz bilan ular sajda qildilar». Faqat Iblis bosh tortib, takabburlik qildi va kofirlardan bo‘ldi. Demak, insondagi kibr – shaytoniy meros. Barcha qalb xastaliklari takabburlik tufaylidir. Shu bois bu illat ilohiy manbalarda keskin qoralanadi. O‘ziga bino qo‘ygan kishi – aqlsizdir, ya’ni o‘zini dono sanab, o‘zgalarni mensimaslik, bo‘lar-bo‘lmasga o‘zini ko‘z-ko‘z qiladigan inson har qancha tashqi ko‘rkka ega bo‘lmasin, u boshqalar ko‘ziga nihoyatda xunuk va beo‘xshov bo‘lib ko‘rinadi. Bu haqida Qur’oni karimda shunday deyiladi: «Odamlarga (kibr lanib) yuzingni burishtirmagin va yerda kerilib yurmagin! Chunki, Alloh barcha kibrli, maqtanchoq kimsalarni suymas» («Luqmon» surasi 18-oyat). Avvalo, inson ko‘rki uning kamtarligida. Alisher Navoiy ham kibr va manmanlikni qattiq qoralaydi. Kibrga berilgan kishini mal’un der ekan, ulug‘ shoir ilohiy kitoblar va payg‘ambarlar tarixida keltirilgan kibr tufayli Azozilning la’natlanganligi haqidagi hikoyatga ishora qiladi. Kibr, manmanlik haqida qator hadislar ham mavjud. Chunonchi, «Har bir qo‘pol, quruq, gerdaygan, beqanoat va dimog‘dor odam ahli do‘zaxdir». Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Janob Rasululloh: «Olloh taolo ko‘ylagi etagini kibru havo birlan sudrab yuradigan bandalarga marhamat nazarini tashlamaydi», — deganlar», yoki Abu Hurayra (r.a) rivoyat qiladilar: «Nabiy sallallohu alayhi vasallam: «O‘ziga yoqqan kiyim kiyib olgan bir odam sochlarini yoyib yelkasiga tashlab olib, takabburona qadam tashlab ketayotgan edi. Olloh taolo uni yer qa‘riga tashladi, u qiyomatga qadar yer ostida to‘lg‘onib va dod solib azob chekadi», — deb aytdilar» Alisher Navoiy Qur’on va hadislarda aytilgan shu kabi g‘oyani o‘z hayotining asosiga aylantirgan va quyidagi xulosalarga kelgan. «Xudpisand – noxiradmand... Mustag‘niy – mag‘bun. Mutakabbir – mal’un» [2.73]. Shoirning ixcham, xos va mos shakldagi bu nasihatlar o‘quvchi yodida juda oson qoladi. Xotirada qolgan bu kabi hikmatlar og‘izdan og‘izga o‘tish natijasida ba’zan aynan, ba’zan o‘zgarib shunga o‘xshash yangi o‘gitlar yuzaga kelgan. Aniq shaxslar tomonidan yozilgan bunday asarlar Abdurauf Fitrat ta’kidlaganidek, «ko‘bchilikning tuyg‘usiga, zavqiga shunday mos keladirkim, u bularning egalariga ahamiyat bermaydir-da, asarni o‘ziniki qilib oladir» [4.69]. Navoiyning «Mahbub ul-qulub»idagi juda ko‘p hikmatlar shu tarzda xalq maqollariga aylangan. Ulug‘ shoirning ilohiy kitoblar va hayotiy xulosalari xalqda «Manmanlik – xudo urganlik»[7.1.262], «Manmanlik shaytonga yarashar» [7.1.262], «O‘zim bilaman degan o‘lar, ko‘p bilaman degan qular» [7.2.229]– kabi maqollarning yuzaga kelishiga qay darajadadir hissa qo‘shganini inkor etib bo‘lmaydi. Bu maqollar hadis yoki hikmat bilan aynan bir xil shaklda kelmagan.

Xalq tafakkurida qayta ishlanib, o‘ziga xos ifoda shakliga keltirilgan. Xususan, so‘nggi maqolda kelgan «Manmanlik yerga kiritar» qismi takabbur Qorunga ishorat etilgan hadis asosida yuzaga kelgani yorqin ko‘rinib turibdi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v) hadislarida insonlar illatlarni tark etib fazilatlarini orttirish, umuman, Haq va haqiqatga da‘vat etiladi. Shunday da‘vatlardan biri so‘zlamq va yemoq xususidadir. «Kimning gapi ko‘paysa, xatosi ham ko‘payadi» [5.230] - degan hadisga asosan Alisher Navoiy shunday fikrlarni bayon etadi: «Fano ahlig‘a ko‘p aytmoq marduddur va ko‘p eshitmak matlub va mahmud. Eshitmak elni to‘la qilur va aytmoq xoli, eshitguvchi va aytguvchining budur holi. Ko‘p degan ko‘p yangilur ko‘p yegan ko‘p yiqilur» [2.73]. Mutafakkir shoir mashoyixlar aytgan «Ko‘p gapirmoq, ko‘p yemoq va ko‘p uxlamq qalbni o‘ldiradi» hikmatini rivojlantirib tan kasalligining asosi – ko‘p yemak, qalb kasalligining sababi – ko‘p demak va ko‘p demak - so‘zga mag‘rurlik, ko‘p yemoq – nafsga buysunish ekanini yozadi.

Hadis yoki hikmat maqolga ko‘char ekan aynan hadis yoki aforizm shaklini saqlamaydi. Asos bo‘lgan manba mazmuni saqlangan holda an‘anaviy xalq maqollarining shakliga ko‘chishi kuzatiladi. Bu hikmat ham maqolga ko‘char ekan shaklan o‘zgarishga uchraydi. «Izzat tilasang, ko‘p dema, sihat tilasang, ko‘p yema» [7.1.192]. Aksariyat xalq maqollariga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri gap qurilishidagi kesimning inkor shaklda kelishidir. Odatda hadis va hikmatlarda gap kesimi tasdiq shaklida bo‘lib, hukmning mo‘tadilligini ifodalaydi. Xalq maqollarida esa, hukm qat‘iy shaklga ega bo‘ladi. Maqol tarzidagi gapning kesimi inkor shaklning bo‘lishini talab etadi. Bu maqolning varianti sifatida shoir aforizimining aynan maqolga ko‘chishini kuzatish mumkin. «Ko‘p demak – so‘zga mag‘rurlik, ko‘p yemak – nafsga ma‘murlik» [2.73]. Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy asarlari xalq orasida juda keng tarqalgan bo‘lib, asarlar tarkibidagi aforizmlari aynan xalq maqollari tarzida qo‘llanilib ketavergan.

Xullas, maqolning janriy xususiyati, ifoda maqsadi, qo‘llanish vazifasini o‘rganish asosida ularning yuzaga kelishida birinchi manba ilohiy kitoblar ekanini qayd etish lozim.

Ilohiy hukmlar el orasida yoyilib, og‘izdan-og‘izga o‘tib, nutqqa moslashib, qulay, oson, sodda shakllarga aylangan. Shu bois ham ba‘zi maqollar barcha xalqlarda aynan bir xil shakl va mazmunda uchraydi.

Qur‘oni karim va Payg‘ambar (s.a.v)dan naql qilingan hadislar asosida o‘zbek xalq maqollari inson ruhiy tarbiyasi, odob, axloqqa doir maqollar bilan boyidi. Ba‘zi hadislar to‘laligicha maqolga ko‘chgan bo‘lsa, ba‘zilari soddalashib, xalqona ohangga solindi.

Shuningdek, yozma adabiyotga alohida muallifga mansub fikrlar ham xalq nutqida ko‘p qo‘llanib, maqollar hajmi boyib bordi. Shunday manbalardan biri Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari bo‘lib, asar tarkibidagi 50 yaqin hikmatlar maqol sifatida qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин. Тарихий инверсия ва фольклор хронотопи муаммоси//Романда замон ва хронотоп шакллари (Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси). –Тошкент: Академнашр, 2015. 125- бет.
2. Навоий Алишер. Махбуб ул-кулуб. МАТ. 14-том. – Т.: Фан, 1998. 10-11-бетлар.
3. Турдимов Ш. Ҳикмат хазинаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 12-бет.(Олим мазкур мақоласида УЛКАН СЎЗ, Эзотерик билим деган ифодада барча докториналар, диний-фалсафий таълимотларни, образли ифодаланса, Одам Атодан Муҳаммад (с.а.в)гача ўргатилган СЎЗни назарда тутишини қайд этиб ўтган. Қ: Ўша китоб. 9-бет.)
4. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. –Тошкент: Маънавият, 2006. 69- бет.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. I китоб. –Тошкент: Шарқ, 2008. 230-б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II томлик. I том. – Москва: Русский язык, 1981. 456-бет.
7. Ўзбек халқ мақоллари. II томлик. II том. –Тошкент: 1987, 131-б.
8. Ҳадис. Имом Ал Бухорийнинг “Ал жоме ал саҳиҳ”
9. Ҳотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. 239-бет.
- 10.<http://www.yutub.com>.